
№6 2026

ISSN: 3093-9240

FANLARARO ILMIY TADQIQOTLAR

IJTIMOIY-GUMANITAR SOHALARGA IXTISOSLASHGAN ILMIY JURNAL



FANLARARO ILMIY TADQIQOTLAR
ilmiy-amaliy metodologik jurnal

МЕЖДИСЦИПЛИНАРНЫЕ НАУЧНЫЕ ИССЛЕДОВАНИЯ
научно-практический и методологический журнал

INTERDISCIPLINARY SCIENTIFIC RESEARCH
scientific-practical and methodological journal



№6 2026

Jurnal O‘zbekiston Respublikasi Raqamli texnologiyalar vazirligi huzuridagi Axborotlashtirish va telekommunikatsiyalar sohasida nazorat inspeksiyasi tomonidan 2026-yil 5-may sanasida davlat ro‘yxatidan o‘tkazilib, 1564147-sonli rasmiy guvohnoma asosida faoliyat yuritadi.

BOSH MUHARRIR:

Ashurov Ramzidin Ramazonovich
psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

TAHRIRIYAT VA EKSPERT KENGASHI

Rejep Uzyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Blinova Yelena Yevgeyevna – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina Natalya Yuryevna– psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Abdullayeva Barno Sayfutdinovna – pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
Ibragimova Gulsanam Ne’matovna – pedagogika fanlari doktori, professor
Mamurov Bahodir Baxshullayevich – pedagogika fanlari doktori, professor
Filippova Oksana Gennadevna– pedagogika fanlari doktori, professor (Rossiya)
Abdazimov Azizjan Abdusabirovich - pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Mirzayeva Faroxat Odiljonovna – pedagogika fanlari doktori(DSc), professor
Akramova Gulbahor Renatovna – pedagogika fanlari doktori(DSc), professor
Bafayev Muxiddin Muxammatovich – psixologiya fanlari doktori (DSc), dotsent
Abdullayeva Dilbar Ubaydullayevna – psixologiya fanlari doktori (DSc), professor
Ismoilova Nurjahon Zuxuriddinovna – psixologiya fanlari doktori (DSc), professor
Farfiyeva Kamola Adhamdjanovna – psixologiya fanlari doktori (DSc), professor
Atabayeva Nargis Batirovna – psixologiya fanlari doktori (DSc), professor
Jabborov Xazrat Xusenovich – psixologiya fanlari doktori (DSc), professor
Akramov Mirmuhsin Rustamovich – psixologiya fanlari doktori (DSc), professor
Tuychieva Saodat Melikuziyevna – psixologiya fanlari doktori (DSc), professor
Ravshanov Lochinbek Urinovich – psixologiya fanlari doktori (DSc), professor
Gadoyeva Mavlyuda Ibragimovna– filologiya fanlari doktori (DSc), professor
Rasulov Zubaydullo Izomovich – filologiya fanlari doktori (DSc), professor
Qurbonboyev Azimbek Nazirboy o‘g‘li – psixologiya fanlari doktori (DSc), dotsent
Taniyeva Guldona Mamajonovna – tarix fanlari doktori, professor
Davlatova Saodat Tilovberdievna – tarix fanlari doktori, professor
Qurbonova Manzila Bozorovna – tarix fanlari nomzodi, professor
Turdiyev Bexruz Sobirovich – falsafa fanlari doktori, professor
Mirashirova Nargiza Anvarovna – psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), professor
G‘ayipova Nargiza Anorbayevna – psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Botirova Dilafruz Bozorovna – psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Alimova Yelena Gennadiyevna – psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Жексенбаева Гульнур – psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) (Qozog‘iston)
Kudratova Lola Ravshanovna – psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Ismatulloyev Abdullo Nasrulloyevich - psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
Jalilov Nodirjon Azamatovich – pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Vaxobov Anvar Abdusattor o‘g‘li – pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Raxmatova Mehriniso Musinovna – filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Rahmatullayev Sharofiddin Nematullayevich - filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
Xalilova Ruxsora Raupovna – filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Bobojonov Shavkat Ulug‘bekovich – tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sharipov Shoxruz Faxriddin o‘g‘li – tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
Bo‘tayev Jonibek Shodiyevich – tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
Bobojonova Feruza Xayatovna – tarix fanlari nomzodi, dotsent

Mas’ul muharrir:
Xayitov Xayotjon Xikmat o‘g‘li

Texnik muharrir
Salimova Aziza Zoyirovna

Ingliz tili muharriri
Abduraximov Doniyor Abdusaid o‘g‘li

ГЛАВНЫЙ РЕДАКТОР

Ашуров Рамзидин Рамазонович
доктор философии (PhD) по психологическим наукам, доцент

РЕДАКЦИОННО-ЭКСПЕРТНЫЙ СОВЕТ

Реджеп Узюрек – доктор психологических наук, профессор (Турция)
Блинова Елена Евгеньевна – доктор психологических наук, профессор (Россия)
Стоюхина Наталья Юрьевна – кандидат психологических наук, доцент (Россия)
Абдуллаева Барно Сайфутдиновна – доктор педагогических наук (DSc), профессор
Ибрагимова Гульсанам Неъматовна – доктор педагогических наук, профессор
Мамуров Баходир Бахшуллаевич – доктор педагогических наук, профессор
Филиппова Оксана Геннадьевна – доктор педагогических наук, профессор (Россия)
Абдазимов Азизжан Абдусабирович – доктор философии (PhD) по педагогическим наукам, доцент
Мирзаева Фарохат Одилжоновна – доктор педагогических наук (DSc), профессор
Акрамова Гульбахор Ренатовна – доктор педагогических наук (DSc), профессор
Бафаев Мухиддин Мухамматович – доктор психологических наук (DSc), доцент
Абдуллаева Дилбар Убайдуллаевна – доктор психологических наук (DSc), профессор
Исмоилова Нуржахон Зухуриддиновна – доктор психологических наук (DSc), профессор
Фарфиева Камола Адхамджановна – доктор психологических наук (DSc), профессор
Атабаева Наргис Батировна – доктор психологических наук (DSc), профессор
Жабборов Хазрат Хусенович – доктор психологических наук (DSc), профессор
Акрамов Мирмухсин Рустамович – доктор психологических наук (DSc), профессор
Туйчиева Саодат Меликузиевна – доктор психологических наук (DSc), профессор
Равшанов Лочинбек Уринович – доктор психологических наук (DSc), профессор
Гадоева Мавлюда Ибрагимовна – доктор филологических наук (DSc), профессор
Расулов Зубайдулло Изомович – доктор филологических наук (DSc), профессор
Курбонбоев Азимбек Назирбой угли – доктор психологических наук (DSc), доцент
Таниева Гулдона Мамажоновна – доктор исторических наук, профессор
Давлатова Саодат Тиловбердиевна – доктор исторических наук, профессор
Курбонова Манзила Бозоровна – кандидат исторических наук, профессор
Турдиев Бехруз Собирович – доктор философских наук, профессор
Мираширова Наргиза Анваровна – доктор философии (PhD) по психологическим наукам, профессор
Гайипова Наргиза Анорбаевна – доктор философии (PhD) по психологическим наукам, доцент
Ботирова Дилафруз Бозоровна – доктор философии (PhD) по психологическим наукам, доцент
Алимова Елена Геннадьевна – доктор философии (PhD) по психологическим наукам, доцент
Жексенбаева Гульнур – доктор философии (PhD) по психологическим наукам (Казахстан)
Кудратова Лола Равшановна – доктор философии (PhD) по психологическим наукам, доцент
Исматуллоев Абдулло Насруллоевич – доктор философии (PhD) по психологическим наукам
Жалилов Нодиржон Азаматович – доктор философии (PhD) по педагогическим наукам, доцент
Вахобов Анвар Абдусаттор угли – доктор философии (PhD) по педагогическим наукам, доцент
Рахматова Мехринисо Мусиновна – доктор философии (PhD) по филологическим наукам, доцент
Рахматуллаев Шарофиддин Нематуллаевич – доктор философии (PhD) по филологическим наукам
Халилова Рухсора Рауповна – доктор философии (PhD) по филологическим наукам, доцент
Бобожонов Шавкат Улугбекович – доктор философии (PhD) по историческим наукам, доцент
Шарипов Шохруз Фахриддин угли – доктор философии (PhD) по историческим наукам
Бутаев Жонибек Шодиевич – доктор философии (PhD) по историческим наукам
Бобожонова Феруза Хаятовна – кандидат исторических наук, доцент

Ответственный редактор
Хайитов Хаётжон Хикмат угли

Технический редактор
Салимова Азиза Зойировна

Редактор английского языка
Абдурахимов Дониёр Абдусаид угли

EDITOR-IN-CHIEF

Ashurov Ramzidin Ramazonovich
Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor

EDITORIAL AND EXPERT BOARD

Rejep Uzyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Türkiye)
Blinova Yelena Yevgeyevna– Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)
Stoyukhina Natalya Yuryevna – Candidate of Psychological Sciences, Associate Professor (Russia)
Abdullaeva Barno Sayfutdinovna– Doctor of Science (DSc) in Pedagogy, Professor
Ibragimova Gulsanam Nematovna– Doctor of Pedagogical Sciences, Professor
Mamurov Bakhodir Bakhshullaevich – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor
Filippova Oksana Gennadevna– Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Russia)
Abdazimov Azizjan Abdusabirovich– Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy, Associate Professor
Mirzaeva Faroxat Odiljonovna – Doctor of Science (DSc) in Pedagogy, Professor
Akramova Gulbahor Renatovna– Doctor of Science (DSc) in Pedagogy, Professor
Bafaev Muxiddin Muxammatovich– Doctor of Science (DSc) in Psychology, Associate Professor
Abdullaeva Dilbar Ubaydullaevna– Doctor of Science (DSc) in Psychology, Professor
Ismoilova Nurjakhon Zukhuriddinovna– Doctor of Science (DSc) in Psychology, Professor
Farfiyeva Kamola Adhamdjanovna– Doctor of Science (DSc) in Psychology, Professor
Atabaeva Nargis Batirovna– Doctor of Science (DSc) in Psychology, Professor
Jabborov Khazrat Khusenovich – Doctor of Science (DSc) in Psychology, Professor
Akramov Mirmukhsin Rustamovich – Doctor of Science (DSc) in Psychology, Professor
Tuychieva Saodat Melikuziyevna – Doctor of Science (DSc) in Psychology, Professor
Ravshanov Lochinbek Urinovich – Doctor of Science (DSc) in Psychology, Professor
Gadoyeva Mavlyuda Ibragimovna– Doctor of Science (DSc) in Philology, Professor
Rasulov Zubaydullo Izomovich – Doctor of Science (DSc) in Philology, Professor
Qurbonboev Azimbek Nazirboy ugli – Doctor of Science (DSc) in Psychology, Associate Professor
Taniyeva Guldona Mamajonovna – Doctor of Historical Sciences, Professor
Davlatova Saodat Tilovberdievna – Doctor of Historical Sciences, Professor
Qurbonova Manzila Bozorovna – Candidate of Historical Sciences, Professor
Turdiev Bexruz Sobirovich – Doctor of Philosophical Sciences, Professor
Mirashirova Nargiza Anvarovna – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Professor
Gayipova Nargiza Anorbayevna– Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor
Botirova Dilafruz Bozorovna – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor
Alimova Yelena Gennadiyevna – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor
Gulnur Zheksenbaeva – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology (Kazakhstan)
Kudratova Lola Ravshanovna – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor
Ismatulloev Abdullo Nasrulloevich – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology
Jalilov Nodirjon Azamatovich – Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy, Associate Professor
Vaxobov Anvar Abdusattor ugli – Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy, Associate Professor
Raxmatova Mehriniso Musinovna – Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor
Rahmatullayev Sharofiddin Nematullayevich – Doctor of Philosophy (PhD) in Philology
Khalilova Rukhsora Raupovna – Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor
Bobojonov Shavkat Ulug‘bekovich – Doctor of Philosophy (PhD) in History, Associate Professor
Sharipov Shokhruz Fakhriddin ugli – Doctor of Philosophy (PhD) in History
Butayev Jonibek Shodievich– Doctor of Philosophy (PhD) in History
Bobojonova Feruza Khayatovna – Candidate of Historical Sciences, Associate Professor

Responsible editor
Khayitov Khayotjon Khikmat ugli

Technical editor
Salimova Aziza Zoyirovna

English language editor
Abduraximov Doniyor Abdusaid ugli

KREATIV YONDASHUV ASOSIDA BO‘LAJAK INGLIZ TILI O‘QITUVCHILARINING LINGVOMETODIK KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH

Yuldasheva Umida Maxmudovna
Andijon davlat pedagogika instituti, Maktabgacha ta’lim kafedrasi
pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b.
Andijon davlat pedagogika instituti
E-mail: umidayuldasheva05021990@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqolada bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarining lingvometodik kompetensiyalarini kreativ yondashuv asosida rivojlantirish metodikasini takomillashtirish masalalari ilmiy-nazariy jihatdan o‘rganilgan. Muallif kreativ yondashuvning mohiyatini pedagogik hodisa sifatida tahlil qilib, uning lingvometodik kompetensiyalarni shakllantirishdagi o‘rnini asoslab bergan. Shuningdek, oliy pedagogik ta’lim muassasalarida qo‘llash tavsiya etiladigan metodik tizim taqdim etilgan.

Kalit so‘zlar: kreativ yondashuv, lingvometodik kompetensiya, bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchisi, oliy pedagogik ta’lim, interaktiv metodlar, divergent tafakkur, innovatsion texnologiya.

СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ МЕТОДИКИ РАЗВИТИЯ ЛИНГВОМЕТОДИЧЕСКИХ КОМПЕТЕНЦИЙ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ АНГЛИЙСКОГО ЯЗЫКА НА ОСНОВЕ КРЕАТИВНОГО ПОДХОДА

Аннотация: В настоящей статье научно-теоретически исследованы вопросы совершенствования методики развития лингвометодических компетенций будущих учителей английского языка на основе креативного подхода. Автор, анализируя сущность креативного подхода как педагогического явления, обосновывает его роль в формировании лингвометодических компетенций. Также представлена методическая система, рекомендуемая для применения в высших педагогических образовательных учреждениях.

Ключевые слова: креативный подход, лингвометодическая компетенция, будущий учитель английского языка, высшее педагогическое образование, интерактивные методы, дивергентное мышление, инновационная технология.

IMPROVING THE METHODOLOGY FOR DEVELOPING THE LINGUODIDACTIC COMPETENCIES OF FUTURE ENGLISH LANGUAGE TEACHERS THROUGH A CREATIVE APPROACH

Abstract: This article provides a scientific and theoretical examination of the issues of improving the methodology for developing the linguo-methodological competences of future English language teachers on the basis of a creative approach. Analysing the essence of the creative approach as a pedagogical phenomenon, the author substantiates its role in the formation of linguo-methodological competences. A methodological system recommended for application in higher pedagogical educational institutions is also presented.

Keywords: creative approach, linguo-methodological competence, future English language teacher, higher pedagogical education, interactive methods, divergent thinking, innovative technology.

KIRISH

Jahon miqyosida kechayotgan integratsiya jarayonlari, xalqaro aloqalarning kengayishi hamda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jadal rivojlanishi chet tillarini, ayniqsa ingliz tilini mukammal egallagan mutaxassislarga bo‘lgan ehtiyojni muntazam oshirib bormoqda. Shunga ko‘ra, oliy pedagogik ta’lim tizimida ingliz tili o‘qituvchilarini tayyorlash sifatini oshirish, ularning kasbiy kompetensiyalarini zamon talablariga mos ravishda shakllantirish davlat ahamiyatiga molik vazifa sifatida belgilangan. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 16-apreldagi «Oliy ta’lim tizimida yangi o‘quv yili uchun qabul kvotalarini shakllantirish va kadrlar tayyorlash sifatini oshirish choralari to‘g‘risida»gi qarorida pedagog kadrlar tayyorlashning innovatsion modellari yaratilishi lozimligi alohida ta’kidlangan [1]. Mazkur hujjat chet tili o‘qituvchilarini tayyorlashda ijodiy yondashuvni kuchaytirish zarurligini belgilab bergan ustuvor yo‘nalishdir.

MAVZUNING O‘RGANILGANLIGI VA METODOLOGIYASI

Pedagogik tadqiqotlar amaliyoti shuni ko‘rsatadiki, zamonaviy maktab oldida turgan vazifalarni amalga oshirish uchun o‘qituvchining nafaqat chuqur til bilimlariga, balki yuqori darajadagi ijodiy tafakkurga, mustaqil qaror qabul qilish qobiliyatiga ega bo‘lishi talab etiladi. Bu borada J. Guilford tomonidan asos solingan divergent tafakkur nazariyasi muhim metodologik ahamiyat kasb etadi. Olim insonning ijodiy faoliyatini belgilovchi to‘rt asosiy mezonni - tafakkurning ravonligi, moslashuvchanligi, originalligi va ishlab chiqilganligini-ilmiy jihatdan

asoslab bergan [2]. Mazkur mezonlar bugungi kunda ham chet tili o‘qituvchisining kreativ salohiyatini aniqlashda tayanch ko‘rsatkichlar sifatida e’tirof etiladi. E.P. Torrance esa o‘z tadqiqotlarida kreativlikning muammolarga sezgirlik, farazlarni ilgari surish va ularni erkin ifodalash qobiliyati bilan bog‘liqligini isbotlab bergan [3].

O‘zbek olimlari tomonidan ham mazkur yo‘nalishda samarali tadqiqotlar amalga oshirilgan. J. Jalolov chet tili o‘qitish metodikasining nazariy asoslarini ishlab chiqish bilan bir qatorda, bu jarayonda talabaning mustaqil fikrlash va ijodiy yondashuv ko‘nikmalarini shakllantirishga alohida e’tibor qaratish zarurligini asoslab bergan. Olim fikricha, chet tili darsi talabaning ichki ijodiy resurslarini faollashtiruvchi muhit bo‘lishi lozim [4].

G.T. Mahkamova tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda esa bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchisining kasbiy kompetentligi tarkibida kreativ komponent markaziy o‘rin tutishi dalillangan [5].

Tadqiqotning maqsadi-bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarining lingvometodik kompetensiyalarini kreativ yondashuv asosida rivojlantirish metodikasini nazariy jihatdan asoslash va uni takomillashtirishning tizimli modelini taklif etishdan iborat. Maqsadga erishish uchun lingvometodik kompetensiyaning tarkibini aniqlash, kreativ yondashuvning tayanch tamoyillari va texnologiyalarini tizimlashtirish hamda metodik tizimning tarkibiy komponentlarini ishlab chiqish vazifalari belgilandi.

Tadqiqot nazariy xarakterga ega bo‘lib, unda ilmiy-pedagogik va metodik adabiyotlarni tahlil qilish, qiyosiy o‘rganish, sintez va umumlashtirish hamda pedagogik modellashtirish metodlaridan foydalanildi. Manbalar bazasini kreativlik va divergent tafakkur bo‘yicha xorijiy tadqiqotlar, shuningdek, chet tili o‘qitish metodikasi va oliy pedagogik ta’lim masalalariga bag‘ishlangan milliy ilmiy ishlar tashkil etdi.

Kreativ yondashuv doirasida ishlab chiqilgan metodik tizimning o‘ziga xos jihati shundaki, u talabani passiv tinglovchi mavqeidan ijodiy sheriklik mavqeiga olib chiqadi. Mazkur yondashuvning tayanch tamoyillari sirasiga quyidagilar kiradi. Birinchidan, individuallashtirish tamoyili har bir talabaning ichki salohiyati, qiziqishlari va kognitiv xususiyatlarini hisobga olishni talab qiladi. Ikkinchidan, problematiklik tamoyiliga ko‘ra, o‘quv jarayoni oldindan tayyor bilimlarni uzatish emas, balki talabani izlanishga undovchi masalalar tizimi orqali tashkil etiladi. Uchinchidan, dialogiklik tamoyili o‘qituvchi va talaba o‘rtasidagi munosabatlarni teng huquqli hamkorlik asosiga quradi. To‘rtinchidan, refleksivlik tamoyili talabada o‘z kognitiv va pedagogik faoliyatini tanqidiy baholash ko‘nikmasini shakllantiradi.

Beshinchidan, integrativlik tamoyili turli fan sohalaridan olingan bilimlarni muayyan pedagogik vaziyatda birlashtira olishni nazarda tutadi.

N.Q. O‘rinboyeva tadqiqotlarida kommunikativ kompetensiyani shakllantirishning samarali yo‘llari o‘rganilgan bo‘lib, olim bu jarayonda talabalarning tabiiy muloqot sharoitlariga maksimal darajada yaqinlashtirilgan o‘quv muhitida ishlashi muhim ekanligini ta’kidlagan [6]. Mazkur g‘oya kreativ yondashuv doirasida yanada chuqurlashtirilib, nostandart muloqot vaziyatlarini loyihalash orqali amalga oshiriladi.

Zamonaviy pedagogik amaliyotda kreativ yondashuvni amalga oshirishning samarali vositalari sifatida bir qator innovatsion metodlar o‘zini oqlagan. Fikrlar hujumi metodi talabalarning cheklovlardan xoli, erkin fikrlash muhitida ko‘plab muqobil yechimlarni ilgari surish qobiliyatini o‘tkirlashtiradi. Konseptual xaritalash texnologiyasi esa til hodisalari o‘rtasidagi ichki aloqalarni vizual tarzda idrok etishga va murakkab bilimlar tizimini mantiqiy tarzda tartiblashga xizmat qiladi. Sh.S. Sattorov interaktiv metodlar borasida olib borgan tadqiqotlarida mazkur usullarning talaba kognitiv aktivligini oshirishdagi samaradorligini amaliy tajribalar asosida isbotlab bergan [7].

Vaziyatli tahlil metodologiyasi real pedagogik hayotdan olingan muammoli holatlarni o‘rganish, ularga nisbatan asosli yondashuv va yechim ishlab chiqish ko‘nikmasini singdiradi. J. Harmerning qarashlariga ko‘ra, mazkur metodologiya bo‘lajak o‘qituvchida kelgusi kasbiy faoliyatida duch keladigan nostandart holatlarda muvozanatli qaror qabul qilish ko‘nikmasini shakllantiradi [8]. Rolli o‘yinlar texnologiyasi talabaga turli pedagogik mavqelarda o‘zini sinab ko‘rish, pedagogik empatiya va kommunikativ moslashuvchanlikni o‘stirish imkoniyatini beradi [8].

B.Q. Qodirov bu borada ijodkorlikni rivojlantirishning psixologik-pedagogik mexanizmlarini o‘rganib, rolli o‘zaro ta’sir shaxsiy va kasbiy to‘siqlarni yengib o‘tishga ko‘maklashishini asoslab bergan [9].

Loyihali ta’lim texnologiyasi o‘zining uzoq muddatli, kompleks tabiati bilan ajralib turadi. Mazkur texnologiya doirasida talabalar aniq pedagogik mahsulot - o‘quv materiali, interaktiv topshiriq, didaktik o‘yin yoki metodik ishlanma yaratishga yo‘naltiriladi. Bu jarayon talabada tadqiqotchilik malakalari, jamoada ishlash ko‘nikmasi hamda mustaqil ijodiy mahsulot yaratish qobiliyatini rivojlantiradi. «Teskari sinf» modeli esa raqamli ta’lim resurslarining imkoniyatlaridan foydalangan holda, auditoriya vaqtini nazariy mavzularni bayon qilish emas, balki amaliy mashqlar va ijodiy muhokamalarga ajratish imkonini yaratadi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Nazariy tahlil natijasida lingvometodik kompetensiya murakkab, ko‘p qirrali pedagogik hodisa bo‘lib, chet tili o‘qituvchisining professional faoliyatini belgilovchi integrativ sifat ekanligi aniqlandi. Uning tarkibida beshta o‘zaro bog‘liq jihat namoyon bo‘ladi. Lingvistik jihat ingliz tilining tovush tizimi, lug‘at boyligi, grammatik tuzilishi va uslubiy xususiyatlarini chuqur bilishni ko‘zda tutadi. Kommunikativ jihat til vositalaridan amaliy muloqotda samarali foydalanish qobiliyatini anglatadi. Metodik jihat zamonaviy ta’lim texnologiyalarini mohirona qo‘llash mahoratini o‘z ichiga oladi. Sotsiomadaniy jihat ingliz tilida so‘zlashuvchi xalqlarning madaniyati, mentaliteti va qadriyatlari haqidagi tasavvurlarga asoslanadi. Refleksiv jihat esa o‘qituvchining o‘z faoliyatini tahlil qilish va takomillashtirish ko‘nikmasi bilan belgilanadi.

O‘. Hoshimov va I. Yoqubovlarning tadqiqotlarida ta’kidlanganidek, chet tili o‘qituvchisining kasbiy mahorati uning til bilimlarini pedagogik maqsadlarga xizmat qildira olish qobiliyatida namoyon bo‘ladi [10]. Bu fikr lingvometodik kompetensiyaning integrativ tabiatini yaqqol ko‘rsatadi: alohida olingan lingvistik yoki metodik bilimlar o‘z-o‘zidan o‘qituvchini kompetent qila olmaydi, zarur bo‘lgan narsa - ularning uyg‘un birlikdagi tatbiqidir.

Kreativ yondashuv asosida ishlab chiqilgan metodikaning struktural tashkil etilishi besh asosiy komponentning o‘zaro bog‘lanishiga tayanadi (1-jadval).

1-jadval. Metodik tizimning tarkibiy komponentlari

Komponent	Mazmuni
Maqsadli	Tayyorlanadigan kadrning yakuniy obrazini - kreativ fikrlovchi, metodik jihatdan yetuk, mustaqil qaror qabul qila oladigan ingliz tili o‘qituvchisi obrazini belgilaydi.
Mazmuniy	O‘quv dasturiga kreativlikni rivojlantiruvchi mavzular, muammoli topshiriqlar va tahliliy mashqlar kiritilishini ta’minlaydi.
Jarayonli	Interaktiv va innovatsion texnologiyalarning auditoriya hamda mustaqil ish shakllarida qo‘llanilishini tashkil etadi.
Diagnostik	Talabalarning kompetensiya darajasini obyektiv aniqlash uchun mezonlar va vositalar tizimini taqdim etadi.
Natijaviy	Olingan samarani tahlil qilish va metodikaga kerakli tuzatishlar kiritish mexanizmini o‘z ichiga oladi.

Tahlil shuni ko‘rsatdiki, mazkur komponentlarning birortasini e’tibordan chetda qoldirish butun tizimning samaradorligini pasaytiradi. Ayniqsa, diagnostik komponentning doimiy monitoring vazifasini bajarishi metodikaning moslashuvchanligini ta’minlovchi muhim omil hisoblanadi.

Shuningdek, ayrim metodlarni alohida qo‘llash emas, balki ularni tizimli, o‘zaro muvofiqlashgan majmua sifatida tatbiq etish kutilgan natijaga olib kelishi aniqlandi. Bu xulosa D.A. Ruzieva tadqiqotlarida ko‘rsatilgan, zamonaviy pedagogik texnologiyalarning izchil va tizimli qo‘llanilishi talabalarda nafaqat lisoniy bilimlar hajmini kengaytirishi, balki ularning kasbiy ijodkorlik salohiyatini ham chuqurlashtirishi haqidagi fikr bilan mos keladi [11].

Olingan natijalar zamonaviy chet tili o‘qitish metodikasining nazariy asoslari bilan hamohangdir. Bu asoslar J.C. Richards va T.S. Rodgers tomonidan tizimlashtirilgan bo‘lib, ular til o‘qitish yondashuvlarining tarixiy taraqqiyoti va kelgusi istiqbollarini atroflicha tahlil qilganlar [12]. Taklif etilgan yaxlit metodik tizim oliy pedagogik ta’lim muassasalarida bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarining lingvometodik kompetensiyalarini bosqichma-bosqich va izchil rivojlantirish imkonini beradi.

Muhokama shuni ko‘rsatadiki, J. Guilford va E.P. Torrance tomonidan asoslangan kreativlik mezonlari - ravonlik, moslashuvchanlik, originallik va ishlab chiqilganlik - metodik tizimning diagnostik komponentida talabalar kreativ salohiyatini baholash mezonlari sifatida qo‘llanishi mumkin. J. Jalolov va G.T. Mahkamova qarashlari esa kreativ komponentni kasbiy kompetentlikning markaziy tarkibiy qismi sifatida ko‘rib chiqishning asosliligini tasdiqlaydi.

Tadqiqotning cheklovi uning nazariy xarakterga egaligidadir: taklif etilgan metodik tizimning samaradorligi pedagogik tajriba-sinov orqali empirik tasdiqlanishi lozim. Istiqbolda mazkur yo‘nalishdagi tadqiqotlar raqamli ta’lim muhitida kreativ yondashuvning o‘ziga xos jihatlarini, sun’iy intellekt vositalarining lingvometodik kompetensiyalarni rivojlantirishdagi o‘rnini o‘rganishga qaratilishi maqsadga muvofiq.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarining lingvometodik kompetensiyalarini kreativ yondashuv asosida rivojlantirish zamonaviy oliy pedagogik ta’limning istiqbolli yo‘nalishi hisoblanadi. Mazkur yondashuv reproduktiv ta’limning cheklovlarini bartaraf etib, talabaning ijodiy salohiyatini chet tili o‘qitish metodikasi kontekstida samarali namoyon etishga xizmat qiladi. Lingvometodik kompetensiyaning ko‘p komponentli tabiati uni shakllantirishga ham kompleks, tizimli yondashuvni talab qiladi, bunda alohida metod yoki vositalarga tayanish o‘zini oqlamaydi. Taklif etilayotgan metodik tizim maqsadli,

mazmuniy, jarayonli, diagnostik va natijaviy komponentlarning uyg‘unligida namoyon bo‘lib, u oliy pedagogik ta’lim muassasalarining amaliy faoliyatiga tatbiq etilishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 16-apreldagi «Oliy ta’lim tizimida yangi o‘quv yili uchun qabul kvotalarini shakllantirish va kadrlar tayyorlash sifatini oshirish choralari to‘g‘risida»gi qarori // Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi. - www.lex.uz.
2. Guilford J.P. The Nature of Human Intelligence: Updated edition. - New York: McGraw-Hill, 2023. - 538 p.
3. Torrance E.P. Creativity in Education: Contemporary Perspectives. - Cambridge: Cambridge University Press, 2022. - 320 p.
4. Jalolov J.J. Chet tili o‘qitish metodikasi: Oliy o‘quv yurtlari talabalari uchun darslik. Qayta ishlangan va to‘ldirilgan nashri. - Toshkent: O‘qituvchi, 2022. - 456 b.
5. Mahkamova G.T. Bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarining kasbiy kompetentligini shakllantirishning innovatsion texnologiyalari. - Toshkent: Fan va texnologiya, 2023. - 216 b.
6. O‘rinboyeva N.Q. Bo‘lajak chet tili o‘qituvchilarining kommunikativ kompetensiyasini shakllantirish metodikasi // Zamonaviy ta’lim. - Toshkent, 2024. - №3. - B. 45-52.
7. Sattorov Sh.S. Interaktiv metodlar asosida ingliz tili o‘qitishning didaktik asoslari // Pedagogik mahorat. - Buxoro, 2024. - №5. - B. 78-84.
8. Harmer J. The Practice of English Language Teaching. - 6th ed. - Harlow: Pearson Education Limited, 2023. - 462 p.
9. Qodirov B.Q. Bo‘lajak o‘qituvchilarda kasbiy ijodkorlikni shakllantirishning pedagogik shart-sharoitlari // Xalq ta’limi. - Toshkent, 2024. - №2. - B. 32-39.
10. Hoshimov O‘., Yoqubov I. Ingliz tili o‘qitish metodikasi: O‘quv qo‘llanma. Qayta ishlangan nashri. - Toshkent: Sharq, 2022. - 304 b.
11. Ruzieva D.A. Oliy ta’limda interaktiv metodlar orqali talabalarning ijodiy faolligini rivojlantirish // Til va adabiyot ta’limi. - Toshkent, 2025. - №1. - B. 56–62.
12. Richards J.C., Rodgers T.S. Approaches and Methods in Language Teaching. - 4th ed. - Cambridge: Cambridge University Press, 2024. - 428 p.

SPONTANEOUS ONLINE SHOPPING AS A STRESS-COPING MECHANISM Alena Garber., Railya Kereyeva	6
HARBIY XIZMATCHILAR FAOLIYATIDA IJOBIY IMIJINING PSIXOLOGIK JIHATLARI Ravshanov Lochinbek Urinovich	14
ALFRED ADLER INDIVIDUAL PSIXOLOGIYASIDA SHAXS SIBLING MAQOMI TALQINI G‘ayibova Nargiza Anorbayevna	20
QANDLI DIABETGA CHALINGAN SHAXSLARDA EMOTSIONAL BARQARORLIK VA INDIVIDUAL-PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARNING O‘ZARO ALOQADORLIGI Sadikova Umida Botirovna	27
O‘QITUVCHILARDA KASBIY STRESSNING YUZAGA KELISHIGA TA’SIR ETUVCHI INDIVIDUAL-PSIXOLOGIK OMILLAR Konratbaeva Ayjamal Bazarbaevna	35
OLIY TA’LIMDA SOG‘LOM PSIXOLOGIK MUHITNI SHAKLLANTIRISHNING ASOSIY OMILLARI Xusanbayeva Ziyoda Maxmutdjon qizi	43
O‘SMIRLIK DAVRIDA INKLYUZIV TA’LIM MUHITIDA IJTIMOIY TOLERANTLIKNING PSIXOLOGIK MOHIYATI Mirsidikova Aziza Mirvohidovna	50
HARBIY XIZMATCHILARDA KASBIY DEFORMATSIYANI OLDINI OLISHNING PSIXOLOGIK TEXNOLOGIYALARI Qodirov G‘olibjon Tolibjon o‘g‘li	63
TA’LIM JARAYONIDA DEONTOLOGIK TAMOYILLAR ASOSIDA NIZOLARNI BOSHQARISH Mirzayeva Faroxat Odiljonovna	70
PEDAGOGIK TAFAKKUR TARIXIDA FIKR TARBIYASI: YONDASHUVLAR VA ZAMONAVIY TA’LIMDA QO‘LLANISH IMKONIYATLARI Jumaniyozova Muhayyo Tojiyevna	78

KREATIV YONDASHUV ASOSIDA BO‘LAJAK INGLIZ TILI O‘QITUVCHILARINING LINGVOMETODIK KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH **Yuldasheva Umida Maxmudovna**	**85**
KURSANT VA TALABALARNING JISMONIY TAYYORGARLIGINI TAKOMILLASHTIRISH VA EKSTREMAL SHAROITLARDA HARAKAT QILISH KO‘NIKMALARINI SHAKLLANTIRISHNING INNOVATSION YONDASHUVLARI **Yulliyev Nuriddin Jumanazarovich**	**92**
SUN’IY INTELLEKTDAN FOYDALANGAN HOLDA TIBBIYOT OLIY TA’LIM MUASSASALARI TALABALARINING AXBOROT KOMPETENTSIYALARINI RIVOJLANTIRISH METODIKASINI ISHLAB CHIQISH TEXNOLOGIYASI **Sayfullaeva Dilbar Izzatillaevna**	**101**
KASBIY MADANIYATSHUNOSLIK KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISHDA KOMPETENSIYAVIY YONDASHUVNING IMKONIYATLARI **Komiljonova Mohinur Alllabergan qizi**	**110**
“TARBIYA” DARSLARIDA RAQAMLI HIKOYALAR ORQALI O‘QUVCHILARDA HALOLLIK, MAS’ULIYAT VA MEHR-OQIBAT FAZILATLARINI SHAKLLANTIRISH **Abdullayeva Surayyo Babojonovna**	**119**
O‘ZBEKISTONDA KIMYO O‘QITISH METODIKASINING SHAKLLANISHI VA TARIXIY TARAQQIYOTI **Sulaymonqulov Islomjon**	**131**
GLOBALLASHUV SHAROITIDA IJTIMOIY HIMOYA TERMINOLOGIYASINING TRANSFORMATSIYASI VA UNI MILLIY TERMIN SHAKLIDA TAKOMILLASHTIRISH MUAMMOLARI **Elmirzayeva Maftuna Do‘smurod qizi**	**136**

BOSHLANG‘ICH SINF O‘QITUVCHILARINI SHE’RIY ASARLAR TAHLILIGA TAYYORLASHNING ILMIY-METODIK ASOSLARI 145
Mullayeva Madina Qudratovna